

“T A S D I Q L A Y M A N”
Namangan viloyati statistika
boshqarmasi boshlig'i
S. Melixujayev
yanvar 2022- yil

Namangan viloyat statistika boshqarmasi Axborot xizmati to‘g‘risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Namangan viloyati statistika boshqarmasi Axborot xizmatining (keyingi o‘rinlarda xizmat deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Axborot xizmati O‘zbekiston Respublikasi Namangan viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda Namangan viloyati statistika boshqarmasi deb ataladi) boshqarmaning mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi hamda bevosita uning rahbariga bo‘ysunadi.
3. Xizmat o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari jumladan, “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zbekiston Respublikasi Namangan viloyati statistika boshqarmasi to‘g‘risida”gi mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Xizmat o‘z faoliyatini Namangan viloyati statistika boshqarmasi tarkibiy bo‘linmalari, Namangan viloyatining tumanlar va shahar statistika bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda hududiy statistika organlari deb ataladi) shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Administratsiyasi huzuridagi Namangan viloyati axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) bilan o‘zaro yaqin hamkorlikda amalga oshiradi.

II. Xizmatning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Quyidagilar xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Namangan viloyati statistika boshqarmasi rahbariyati tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;

Axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida xizmat zimmasiga yuklatilgan vazifalarni Namangan viloyati hokimligining Matbuot xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Administratsiyasi huzuridagi Namangan viloyati axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikda ta’minlash;

Namangan viloyati statistika boshqarmasi faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturalar tashkil etish yo‘li bilan aholiga muntazam, to‘liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;

Namangan viloyati statistika boshqarmasi mamlakatimizning hamda viloyatimizning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni haqida axborot berish va yoritish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;